

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”



Urganch davlat universiteti rektori
B. I. Abdullayev

29-iyun

2024-y.

**Ikkinchi va undan keyingi oliy ta’lim olish bo’yicha
60420100-Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo’yicha) ta’lim
yo’nalishiga hujjat topshirish va imtihon (test) o’tkazish
dasturi**

Urganch - 2024

KIRISH

Mazkur dastur ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim olish istagini bildirgan abituriyentlar uchun mo'ljallangan bo'lib, umumiy o'rta va o'ta maxsus, oliy ta'limning tegishili bosqichlarida o'qitilgan davlat va huquq asoslari, konstitutsiyaviy huquq, mehnat huquqi, oila huquqi, jinoyat huquqi, fuqarolik huquqi, ma'muriy huquq, xalqaro huquq, inson huquqlari, so'nggi yillardagi mamlakatimizdagi huquq sohasidagi islohotlar va yangiliklar bilan bog'liq mavzular o'rin olgan, ushbu mavzular abituriyentlar bilimini aniqlash va baholashda muhim o'rin tutadi.

Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish istagini bildirgan abituriyentlar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining maxsus elektron tizimi (**ikkinchitalim.edu.uz**) orqali ro'yxatdan o'tish orqali amalga oshiriladi.

Kirish imtihonlari **test sinovlari** shaklida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan **2024-yil 31-mayda** tasdiqlangan ***“Respublika Oliy ta'lim muassasalarining ta'lim yo'nalishlari ro'yxati va ularga mos test sinovi (kasbiy (ijodiy) imtihon) topshiriladigan fanlar majmuasi”***dagi fanlar taqsimotini hisobga olgan holda 60420100 – Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi kunduzgi ta'lim shaklida **“Huquqshunoslik”** va **“Chet tili”** fanlari bo'yicha test sinovlari o'tkaziladi.

Dasturning maqsadi va vazifalari

Huquqshunoslik fanlari bo'yicha tuzilgan ushbu dastur kirish imtihonlarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish istagini bildirgan abituriyentlarning shu sohaga bo'lgan qiziqishi, bilim darajasi va kelajakda yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi va huquqshunoslik kasbi bo'yicha faoliyat yuritish kompetentsiyalarini aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish istagini bildirgan abituriyentlarning bilimiga qo'yiladigan talablar.

Huquqshunoslik fanlari bo'yicha o'tkaziladigan kirish imtihoni quyidagi mavzularni qamrab olishi namuna tariqasida keltiriladi:

Shaxs. Jamiyat. Davlat. Davlatning funksiyalari. Davlatning boshqaruv shakli. Davlatning tuzilish shakli. Siyosiy tartibot (rejim). Davlat organlari. Davlat mexanizmi. Fuqarolik jamiyati. Huquqiy davlat. O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi organ. O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organlari. O'zbekiston Respublikasi sud tizimi. Ahloq va huquq. Huquq normalari. Huquq sohalari. Huquqiy munosabatlar. O'zbekiston Respublikasining qonun manbalari. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat.

Huquqbuzarlik. Yuridik javobgarlik. Huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari. Adliya vazirligi. Advokatura va notarial idoralar. Qurolli kuchlar va yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. Fuqarolik qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari. Jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari. Mehnat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari. Huquq – shaxs va davlat munosabatlarining mustahkam asosi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsad va vazifalari. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi. Inson huquq va erkinliklarini himoyalash mexanizmi. Davlatda qonunning ustuvorligi O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asoslari. Insonparvarlik prinsipi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumining asosi. O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy huquq. Ma‘muriy huquqbuzarlik va ma‘muriy javobgarlik. Ma‘muriy jazo va uning turlari. O‘zbekiston Respublikasida Fuqarolik huquqi. Bitimlar va vakillik. Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar. Fuqarolik– huquqiy shartnomalar shartlari. Iste‘molchilar huquqlari va majburiyatlari. Ishlab chiqaruvchi tomonidan tovar sifatiga beriladigan kafolat. Intellektual mulk huquqi. Fuqarolik ishining sudda ko‘rib chiqilishi bosqichlari. Mehnatga oid munosabatlar. Ishga qabul qilish. Mehnatni muhofaza qilish. Ishga qabul qilinayotganda hujjatlarni rasmiylashtirish. Mehnatga haq to‘lash va intizom. Ish vaqti va dam olish vaqti. Mehnat shartnomasini o‘zgartirish va bekor qilish. Mehnat nizolari va ularni hal etish tartibi. O‘zbekiston Respublikasining Yangi Konstitutsiyasi. Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini. Nikoh tuzish tartibi va shartlari. Er– xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari. Er– xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari. Er va xotin mol– mulkining shartnomaviy jihatlari. Jinoyat huquqining maqsadi, vazifasi vatamoyillari. Jinoyat. Jinoyat javobgarlik va jazo tizimi. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklarining kengayishi va ularga qarshi jinoyatlar. Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar. Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar. Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar. Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar. O‘zbekistonda moliya– kredit tizimi. Moliyaviy– huquqiy munosabatlar. O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti va byudjet huquqi. Davlat daromadlarini huquqiy tartibga solish. Davlat kreditining huquqiy asoslari. Tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari. Ekologik huquqbuzarlik uchun javobgarlik. Jinoyat– protsessual qonun hujjatlari Jinoyat protsessi ishtirokchilari. Jinoyat protsessual qonunchilikda aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar, so‘ngi yillardagi mamlakatimizdagi huquq sohasidagi islohotlar va yangiliklar kabi masalalarni bilishi kerak.

Kirish imtihon natijalarini baholash mezonlari

Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish istagini bildirgan abituriyentlar uchun kirish imtihonlari test tariqasida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining **2024 yil 4-apreldagi 4-q/q-son** va Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining **2024 yil 2-apreldagi 3-mh-son Qarori** bilan tasdiqlangan "*O'rta maxsus, professional, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limga kirishda tan olinadigan xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro sertifikatlar ro'yxati*"da keltirilgan **chet tilini bilish bo'yicha tegishli sertifikatga ega bo'lgan talabgorlar 60420100 – Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishiga kirish test sinovlari fanlar majmuasiga chet tili fanidan test sinovi topshirmaydi**. Talabgor tomonidan taqdim etilgan (topshirilgan) hujjatlarning qalbakiyligi aniqlansa, u holda talabgor kirish imtihonlaridan (*talabalikka qabul qilingan bo'lsa, oliy ta'lim muassasasi talabalari safidan*) chetlashtiriladi hamda bu haqda belgilangan tartibda huquqni muhofaza qilish organlariga xabar qilinadi.

Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim bakalavriyatning "60420100–Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)" yo'nalishini kunduzgi ta'lim shakliga o'qishga qabul qilish **to'lov-kontrakt asosida** amalga oshiriladi.

Test jarayonida abituriyentlarning auditoriyadan chiqishi, bir– biri bilan gaplashishi, boshqa abituriyentlarga o'z test varaqalarini berishi, o'zi bilan darsliklar, o'quv– uslubiy qo'llanmalar, lug'atlar, ma'lumotnomalar va boshqa adabiyotlar normativ– huquqiy hujjatlar, konspektlar, elektron va qog'oz shaklidagi shpargalkalar, kalkulyatorlar, aloqa vositalari (shu jumladan uyali aloqa vositasi), audio– foto va video– yozuv qurilmalari va h. k. larni olib kirishi va ulardan foydalanishi taqiqlanadi.

Test uchun ajratilgan vaqt tugaganidan so'ng, abituriyent o'z test varaqasini auditoriya rahbariga topshirishga majburdir. Auditoriya rahbari test imtihonda qatnashgan talabalar ro'yxati hamda auditoriyadan chetlashtirish to'g'risidagi dalolatnomalarni mas'ul kotibga topshiradi.

Apellyatsiya komissiyasi va uning faoliyatini tashkil etish

Apellyatsiya komissiyasi kirish imtihoni komissiyasi faoliyatini yo'lga qo'yilishi bilan bir paytda 2024–2025 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Kirish imtihoni (test) bosqichlari natijalari bo'yicha apellyatsiyaga arizalar faqat imtihon bosqichlari natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat mobaynida qabul qilinadi. Aks holda ko'rsatilgan muddatdan o'tib qilingan murojaat inobatga olinmaydi.

Murojaat mazmunida faqat o'zining ijodiy ishi va ballari xususida e'tiroz bo'lsa, qabul qilinadi. Lekin boshqa abituriyentlar ishlari va ballari haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Apellyatsiya qilish jarayonida abituriyentga qo'shimcha savol berishga ruxsat berilmaydi.

Kirish imtihoni (test) da olingan ballni o'zgartirish faqat fan bo'yicha komissiyaning roziligi bilan va faqat apellyatsiya qiluvchi abituriyent ishtirokida oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining qarori bilan amalga oshiriladi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib— intizom va shaxsiy javobgarlik— har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak //T.:—O'zbekiston. – 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. – 48 b
4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF– 4947– sonli —O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. www.lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <https://www.prezident.uz/uz/list/3324>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 y. PF– 6079– sonli —Raqamli O'zbekiston—2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amapga oshirish chora– tadbirlari to'g'risidagi Farmoni. www.lex.uz
8. Odilqoriev X. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent , 2022. – 495 b.
9. Saydullaev SH. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. –Toshkent: TDYUU, 2018. – 220 b.
10. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – T.: Adolat, 2007. – 916 b.
11. Najimov M.K. Norma ijodkorligi.Darslik. – TDYUU, 2018. – 181b.
12. Bluntschli J.K. The Theory of the State.– Canada: Batoche books, 2000. – 491p.
13. Boshno S. The subject and the method of the Theory of Law and State (Jurisprudence) // Law and modern States. 2015. –№6. – P. 69– 82.
14. Coleman J., Shapiro S. Jurisprudence and philosophy of law. – New York: Oxford University Press, 2004. –1041 p.
15. Muhamedov H.M. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. (Qadimgi dunyo davlati va huquqi tarixi). I qism.Darslik. – T.:Adolat, 1999. – 336 bet.
16. Muhamedov H.M. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. 1– qism. Darslik. – T.: TDYuI, 2005. – 280 b.
17. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi.

Darslik. Mualliflar jamoasi. –T.: TDYUI, 2005 – 545 b.

18. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. Mualliflar jamoasi – T.: TDYUI nashriyoti, 2012. – 649 b.

19. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. –Toshkent: Adolat, 2021. – 552 b.

20. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. –Toshkent: Adolat, 2023. – 535 b.

Milliy va xalqaro normativ– huquqiy hujjatlar:

1 O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –2023– yil 30-aprel

3. O‘zbekiston Respublikasining —Normativ– huquqiy hujjatlar to‘g‘risidagi Qonuni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512– son, 10.01.2018 y., 03/18/459/0536– son, 19.04.2018 y., 03/18/476/1087– son, 09.01.2019 y., 03/19/512/2435– son.

4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining 103– I– son Konstitutsiyaviy qonuni // 31.05.2017 y. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 22– son, 407– modda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining (Yangi tahriri) O‘RQ– 591– son Qonuni // 10.12.2019 y. // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 11.12.2019 y., 03/19/591/4130– son.

6. O‘zbekiston Respublikasining referendumini to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining (Yangi tahriri) 265– II– son Qonuni 30.08.2001 y. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2001 y. 9– 10– son, 176– modda.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi 2017 yil 07 fevraldagi PF– 4947– son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6– son, 70– modda.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 08.08.2018 y., 06/18/5505/1639– son; 09.11.2019 y., 06/19/5870/4010– son

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 apreldagi PF– 5987– sonli -O‘zbekiston Respublikasida Yuridik ta‘lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora– tadbirlar to‘g‘risidagi Farmoni.